



## **BOKS SPORT TURIDA RINGDA XARAKATLANAYOTGAN REFEREENING MAJBURIYATLARI**

***Umarov Qaxxorjon Abbosovich***

*P.f.b.f.d. (PhD), v.b. Professor.*

*Toshkent shahri Oriental universiteti,*

*E-mail: [uzkoha@mail.ru](mailto:uzkoha@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Respublika refere xakamlarini terma jamoasining turli viloyatlarda o‘tkazilgan xar hil turdagи musobaqalar jarayonida bokschilar ringida ularning jestlar olib borish faoliyatini to‘g‘ri va noto‘g‘ri olib borishidagi xarakatlar ko‘rsatkichlari yoritilgan. Xamda ular uchun qo‘llanilgan yangi metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi yoritilgan.

**Tayanch so‘zlar:** Ayol referelar, boks musobaqalar, ring, takomillashtirish, amaliy tavsiyalar.

### **ОБЯЗАННОСТИ РЕФЕРИ, СУДЕЙСТВУЮЩЕГО НА РИНГЕ В БОКСЕ**

**Аннотация:** Выделены показатели правильных и неправильных действий судей сборной республиканских судей в ходе различных соревнований, проводимых в разных регионах на боксерском ринге. Также подчеркивается, что для них разработаны новые методические рекомендации.

**Ключевые слова:** Женщины-судьи, соревнования по боксу, ринг, совершенствование, практические рекомендации.

### **RESPONSIBILITIES OF A REFEREE JUDGING IN THE BOXING RING**

**Abstract:** Indicators of correct and incorrect actions of judges of the national team of judges during various competitions held in different regions in the boxing ring are highlighted. It is also emphasized that new methodological recommendations have been developed for them.

**Key words:** Women judges, boxing competitions, ring, improvement, practical recommendations.

**Dolzarbliji:** Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportga davlat siyosati miqiyosida etibor qaratilishi, sport turlarini rivojlanib ommaviylashishiga katta hissa qo‘shmoqda. 2019-yil 3-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PF-5864-sonli “Xotin-

qizlar sportini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonning qator chora-tadbirlar xotin-qizlar sportini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Ushbu dasturlar orqali xotin qizlarni sportini O‘zbekistonda ommaviylashishiga dasturi amal bo‘lib xizmat qiladi.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 апрелдаги ПҚ-5099-сонли “Боксни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” Қарорининг қабул қилиниши юқоридаги фикрларимиз далилидир.

Xotin-qizlar jismoniy tarbiya va sportga oid chiqqan xukumat qarorlarida belgilangan vazifalar, barcha sport muassasalarida bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib ulgurdi [1,2].

**Tadqiqotning maqsadi:** Ringda xarakatlanayotgan ayol referelarning majburiyatlarini takomillashtirish.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

- Boks sport turida ringda xarakatlanayotgan ayol referilarni xavaskor boks musobaqalari taxlili;
- Ringda xarakatlanayotgan ayol referelar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning usullari:** Adabiyotlar tahlili, pedagogic kuzatuv, matematik-statistik taxlil, pedagogic tadqiqotlar.

**Tadqiqotni tashkillashtirish.** Tadqiqotlar 2023 yil 10 - yanvaridan 2024yil 27-dekabr oylarida Respublikamizning turli viloyatlarida xar xil yoshdagи xalqaro va O‘zbekiston championatlarida referilar xarakatlari kuzatildi va taxlil qilindi.

Yuqorida ayol referilarning ko‘p yillik tayorgarlik bosqichida nufuzli musobaqalarda qo‘llaniladigan tavsiyalarni ishlab chiqish va uni IBA ayollar xakamlar terma jamoalariga tavsiya etish kelgusida musobaqa jarayonlarini tomoshabinbop bolishini taminlaydi. Bu esa, to‘g‘ridan- to‘g‘ri jangni saviyali o‘tishiga ta’sir etadi. Shu sababli biz tadqiqotimiz davomida turli musobaqalarda ringda xarakatlanayotgan ayol referelarning majburiyatlarini takomillashtirishni maqsad qilib olganimiz. [2,3].

“I-Жадвал”.

#### **Ayol referilarning faoliyatini turli musobaqalarda kuzatuv taxlili**

<b>№</b>	<b>Musobaqa nomi</b>	<b>O‘tkazilgan joy</b>	<b>To‘g‘ri xarakat</b>	<b>Noto‘g‘ri xarakat</b>
<b>1.</b>	Erkaklar ortasida Ozbekiston championati	Toshkent shaxri (Universal sport saroyi) 2023 yil	70 % - 80 %	20 % -30 %

<b>2.</b>	Ayollar ortasida Ozbekiston championati	Toshkent shaxri (Universal sport saroyi) 2023 yil	50 % - 55 %	40 % - 45 %
<b>3.</b>	Yoshlar ortasida Ozbekiston championati	Farg‘ona shahri (Okean sport kompleks) 2023 yil	80 % - 90 %	10 % - 20 %
<b>4.</b>	Yosh xotin qizlar o‘rtasida Ozbekiston championati	Xorazm viloyati xorazm shahri (UIOZIM zali) 2024-yil	30 % - 40 %	60 % - 70 %
<b>5.</b>	Kichik o‘smirlar o‘rtasida Ozbekiston championati	Sirdaryo viloyati Guliston shahri (SOZK zali) 2024-yil	60 % - 70 %	30 % - 40 %

*Izox: Jadvalda Respublikamizning turli viloyatlarida o‘tkazilgan boks musobaqalarida, ayol referelarning faoliyati kuzatilgan.*

O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra natijalar quyidagicha boldi. Toshkent shahri Universal sport saroyida 2023-yil erkaklar ortasida o‘tkazilgan Ozbekiston championati musobaqasida referilar xarakatlari kuzatilganda baxolash qiyin bolgan baxslarda aksariyat referilikga xalqaro toifadagi xakamlar aylanma grafigiga to‘g‘ri kelganligi uchun 70-80 % to‘g‘ri ko‘rsatkichlar amalga oshirildi. Bunga sabab xalqaro toifadagi xakamlarning musobaqalar jarayonida jang faoliyatini kuzatishi va ortiqcha xolatlarga etiborini qaratmasligi sportchilar ustidan nazorat qilishni osonlashtiradi, shu sababli bu championatda qilingan xatolar referelar tomonidan 20-30 % gacha kuzatilganligi aniqlandi.

Navbatdagi Toshkent shahri Universal sport saroyida 2023-yil ayollar o‘rtasida o‘tkazilgan Ozbekiston championati musobaqasida musobaqa janglarini olib borayotgan ringdagi referelarni baholash kuzatilgan paytda ularning ko‘rsatgichlari o‘rtacha 50 % - 55 % ni tashkil qildi. Chunki aylanma grafikka asosan ringdagi refere rispublika toifasidagi boks xakamiga to‘g‘ri kelganligini sababli baxslar biroz qiyinchilik bilan o‘tdi. Bu ringda ko‘plab xatoliklarni keltirib chiqardi va ringda jang olib borayotgan bokschilarga va atrofdagi hakamlarga ham ta’sir qildi. 40 % - 45 % bajarilgan noto‘g‘ri harakatlar boksning saviyasini tushushiga sabab bo‘ldi.


Farg‘ona shahri Okean sport kompleksida 2023-yil Yoshlar o‘rtasida O‘zbekiston championati o‘tkazildi. Bu musobaqalarda xakamlarni baholash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Bu tizim musobaqani saviyali o‘tishi hamda xakamlarni ringda o‘tkazgan musobaqalaridan kelib

chiqib grafik asosida ringda harakat qiladi. Farg’ona shahri Okean sport kompleksida 2023-yil Yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan O‘zbekiston championati bir muncha qiyinchiliklar keltirib chiqarmadi. Aylanma grafikga asosan nufuzli musobaqalarda ishtirok etgan va uzining bilim tajribasiga ega bo‘lgan xakamlar ishtirok etib 80 %-90% chiroyli natija ko‘rsatishdi. Bu shuni ko‘rsatadiki har bir ishning o‘z mutaxasislari bo‘lgani yaxshi. Ringdagi holatlardan kelib chiqib 10%-20% noto‘g‘ri holatlar ham kuzatildi. Bu ringdagi holatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmadi.

Xorazm shahri UIOZIM zalida yosh xotin qizlar o‘rtasida 2024-yil 15-21 dekabr kunlari O‘zbekiston championati o‘tkazildi. Musobaqada har doimgidek O‘zbekiston boks federatsiyasi va hakamlar hay’ati tomonidan baholash me’zonlari ishlab chiqilgan va har bir musobaqada xakamlarni muntazam ravishda baholab boriladi. Bu ham musobaqaning saviyali o‘tishiga va pedagogik jihatdan yondashganda yetuk kadr bo‘lishini ta’minlaydi. Xotin qizlar o‘rtasida o‘tkaziladigan musobaqalar har doim erkaklarga nisbatan ancha qiyinroq bo‘ladi. Musobaqada ayol hakamlar ko‘proq hissiyotlarga berilganliklari va ayollik qalbi bo‘lgani uchun hamisha ko‘rsatgich foizlari 30%-40% erkaklarga nisbatan past bo‘ladi. Bu musobaqaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. 60%-70% noto‘g‘ri harakatlarni keltirib chiqaradi.

Guliston shahri GIOZIMda 2024-yil Kichik o‘smirlar o‘rtasida O‘zbekiston championati o‘tkazildi. Qiyin janglarda aylanma grafikka asosan ish qilinadi va ringdagi xakam o‘z ishini bajaradi va jangni saviyali o‘tkazish va ringdagi holatlarga javobgarligi xakam uchun asosiy hisoblanadi. Xalqaro toifadagi hakamlar uchun janglar qiyin bo‘lsa ham odilona chiqish yo‘llaridan foydalanadilar. Bu qiyin jangda 60%-70% ijobiy tomonga o‘zgardi. Salbiy holatlar esa 30%-40% ni tashkil qildi. Bundan ko‘rinib turibdiki bu hamma uchun yomon ko‘rsatgich. Boksning saviyasiga ta’sir qiladi. Har xil kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi, shu sababli, musobaqalarda imkon qadar referelarni aylanma xarakat joylashuviga etibor qaratilishi lozim. Shundagina

Tavsilar natijasi diagrammasi



Tavsiyalar orqali erishilgan natijalar quyidagicha boldi. Toshkent shahrida musobaqalarda xakamlarning faoliyatini 29% ga yahshilandi va takomillashtirildi. Toshkent viloyatida referelar ko‘rsatkichlari 25% ga yahshilandi. Farg‘ona viloyatida musobaqalarda kuzatilganda referelar faoliyati 22% ga yahshilandi. Xorazm viloyatida har xil turnirlar va championatlarda ayyol referelar kuzatilganda 16% ga yaxshilangani aniqlandi. Sirdaryo viloyatida o‘tkazilgan Respublika championatlarida xakamlarning faoliyati ko‘rsatkichi 8%ga oshganligi olib borilgan tadqiqotlarda o‘z isbotini topdi.

### XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra ringda xarakatlanayotgan ayol referelarning majburiyatlarini takomillashtirish turli musobaqalarda xakamlarda kuzatiladigan xato kamchiliklarni izlab toppish va ularni bartaraf qilish, xamda ular faoliyatini takomillashtirish uchun tavsiyalarni izlab topish va ularni amaliyotda qo‘llash bizning tadqiqotimizning maqsadi edi.

Tadqiqotlar 2023-yil 10-yanvaridan 2024-yil 27-dekabr oylarida Respublikamizning turli viloyatlarida xar xil yoshdagi xalqaro va O‘zbekiston championatlarida milliy toifadagi referilar, Respublika toifasidagi referilar va xalqaro toifadagi referi xakamlarini ringdagi xarakatlari kuzatildi va taxlil qilindi, bunga ko‘ra ayol referelarning aksariyati musobaqalar jarayonida ko‘ngilchanglik qilishi va sportchilarga past ovozda buyuriq berishi baxsni tushunarsiz o‘tishiga sababchi bo‘lmoqda 45% - 50% darajada xatoliklarni keltirib chiqarishi ma’lum bo‘ldi.

Yuqorida ayol referilarning ko‘p yillik tayorgarlik bosqichida nufuzli musobaqalarda qo‘llaniladigan tavsiyalarni ishlab chiqish va uni IBA ayollar xakamlar terma jamoalariga tavsiya etish kelgusida musobaqa jarayonlarini tomoshabinbop bolishini taminlaydi. Bu esa,

to‘g‘ridan-to‘g‘ri jangni saviyali o‘tishiga ta’sir etadi. Shu sababli biz tadqiqotimiz davomida ringda xarakatlanayotgan ayol referelarning majburiyatlarini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi xamda “MikroPul” apparat dasturi ustida ish olib borilmoqda. [5,6].

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.**

1. 2019-yil 3-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PF-5864-sonli “Xotin-qizlar sportini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 апрелдаги ПҚ-5099-сонли “Боксни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” Қарорининг қабул қилиниши юқоридаги фикрларимиз далилидир.
3. Tajibayev S.S., Umarov Q.A., Abdullayev M.J. Bokschilarni sport pedagogik mahoratini oshirish (Ayollar boks). 2021.-174 bet.
4. Q.A.Umarov. “Kikboksing atamalarining izohli lug‘ati”. Услубий қўлланма. Тошкент.- 2016. -146 б.
5. Q.A.Umarov. “Sport pedagogik mahoratini oshirish” (kikboks). O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2024 y.-150 bet.
6. Musayeva U.A., Sharipova S.N., Yusupova R.I. Anatomiya. O‘quv qo‘llanma – 2023 yil. 80 b.
7. Свечникова Н.В., Похопенчук Ю.Т. Медицинские проблемы современного женского спорта. Актуальные проблемы спортивной медицины: Материалы XXIV Всесоюзной конференции. -М., 1990.-77-82 с.
8. Лубышева Л.И Женщина и спорт: социальный аспект = Woman and Sport: Social Aspect //Теория и практика физической культуры. – 2000. - № 6. –13-16 с.
9. Costill D.L., Saltini A. Faktors v Limiting gastrik cmptying during rest and exercise//nAppl. Physiolog-1974.-V. 37.-P.